

**ZAMONAVIY O'ZBEK TILSHUNOSLIGIDA
O'ZBEK TILINI DARAJALASH MASALASI**

Xolmuradova Jamila Irmetovna

Toshkent amaliy fanlar universiteti dotsenti, f.f.n.

jamilaxalmuratova66@mail.ru

Yusupova Latofat Qadamovna

TAFU 1-bosqich magistranti

Annotatsiya: O'zbek tilni daraja me'yorlariga ko'ra o'qish - o'qitish va shu asosida baholash nafaqat chet elliklarning o'zbek tilini o'rGANishi uchun aniq bosqichma-bosqich tizimli dastur bo'lib xizmat qilsa, o'zbek millatiga mansub til sohiblarini o'z ona tilini qay darajada bilishini baholab berishi hamda bunday yondashishning afzallik jihatlari haqida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: o'zbek tili, millat, taraqqiy, milliy g'urur, mavqe, adabiy til, intellectual, ma'naviy salohiyat, darajalash, kompetensiya, zamonaviylik, aniqlik, daraja me'yorlari, qonun-qoidalar, baholash.

Har bir xalqning tarixi, ma'naviyati, madaniyati va o'ziga xosligi shu millatning tili bilan uyg'un holda rivojlanadi, taraqqiy etadi. Ma'naviy boyligimiz – davlat tili – o'zbek tilini milliy meros sifatida saqlash, avlodlarga bezavol yetkazib berish tilning ijtimoiy yashovchanligini ta'minlaydi. Tilning ijtimoiy yashovchanligi o'z navbatida o'sha xalqning milliy g'ururini asrab-avaylash bilan tengdir.

Joriy yilda o'zbek tiliga davlat tili maqomi berilganining o'ttiz yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimda muhtaram yurtbosimiz Sh. Mirziyoyevning nutqlari butun xalqimiz, jumladan, ziyolilari, til fidoiylari – tilshunoslarni o'zbek tilining qadr-qimmati oldidagi mas'uliyatini yana bir bor oshirdi. Nafaqat mamlakatimizda, balki butun jahon miqyosida o'zbek tilining bugungi kundagi o'rni (Jahonda o'zbek tilida gaplashuvchilar soni ellik milliondan oshdi: dunyoning yuzdan ortiq maktab, oltmishta yaqin universitetlarida o'zbek tili o'qitiladi)

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

ayniqsa, o'tgan yillar davomida yurtimizdagi yuzdan ortiq millat va elat vakillarini o'zaro bog'laydigan mehr-oqibat tiliga aylanganlanganligi diplomatik va akademik maqsadlar uchun o'zbek tilining nufuzi va mavqeyini oshirish zarurligini ko'rsatadi.

Bugungi kunga qadar o'zbek tili va uning mavqeyini yanada oshirish borasida yigirmadan ortiq rasmiy hujjatlar imzolandi va ularning ijrosisi uchun tegishli mutaxassislar safarbar etildi. Quyidagilar shular jumlasidan:

- O'zbekiston Birinchi Prezidenti I.A.Karimovning 2016-yil 13-maydag'i PF-4749- sonli Farmoniga binoan "Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetining tashkil etilishi to'g'risida"gi Farmoni;

- Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning 21-oktabr 2019-yildagi "O'zbek tiliga davlat tili maqomi berilganining o'ttiz yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdag'i nutqi;

- O'zbekiston Republikasi Prezidentining 21-oktabr 2019-yildagi "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni.

Bugungi kunda amaliy tilshunosligimiz oldida turgan eng muhim masalalardan biri – o'zbek adabiy tilini jahon miqyosida o'rghanuvchilar va millat vakillariga tez va oson o'rgatish maqsadida ona tilimizning mukammal darajalashini yaratishdir. Bunday mas'uliyatni, albatta, biz yoshlar o'z zimmamizga olishimiz kerak. Zero, yosh avlodni tarbiyalashga qaratilgan davlat siyosati borasida Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev shunday deydi: "Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma'naviy salohiyatga ega bo'lib, dunyo miqyosida o'z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo'sh kelmaydigan insonlar bo'lib kamol topishi, baxtli bo'lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz".¹

Hozirgi kunda zamonaviy o'zbek tilshunosligida o'zbek tilini darajalash yangi amaliy lingvistik tadqiqot bo'lib, bu ishga barcha tilshunos olimlar va magistrantlar aynan bir guruh tashkil qilib yondashishi maqsadga muvofiqdir.

¹ Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birqalikda barpo etamiz. -Toshkent: O'zbekiston, 2016. 14-b.

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

Bunda biz jahon tilshunosligi nazariyasi va amaliyotiga tayanib, CEFRL va IELTS qonun-qoida va ko‘nikmalariga asoslangan holda ona tilimizning yangi darajalanish qolipini yaratishni ko‘zda tutdik.

Hozirgi o‘zbek tilshunosligining nazariyasi, grammatic qonuniyatları XX asrdan tilning sistem tabiatiga ko‘ra tizimlashtirila boshlandi. Tilshunoslikda ushbu nazariyalarga asoslangan tizimli amaliyotga yondashish vaqtı kelgan bir paytda o‘zbek adabiy tilining darajalanishi ayni muddao. Chunki tilni daraja me’yorlariga ko‘ra o‘qitish va shu asosida baholash nafaqat chet elliklarning o‘zbek tilini o‘rganishi uchun aniq bosqichma-bosqich tizimli dastur bo‘lib xizmat qilsa, o‘zbek millatiga mansub til sohiblarini o‘z ona tilini qay darajada bilishini baholab beradi. Bu esa jamiyatimizning barcha jabhalari taraqqiyotida ahamiyatli bo‘lgan “Milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari” shiorining tilshunoslikda amalda qo‘llanilayotganidan dalolatdir.

O‘zbekistonning davlat tili - o‘zbek tili ham tarixiy taraqqiyot natijasida adabiy til sifatida shakllanib, hozirda butun dunyo bo‘yicha ellik milliondan ortiq iste’molchilariga egadir. O‘zbek tilidan foydalanuvchilar ko‘laming oshishida o‘zbek tilining mukammal grammaticasini ishlab chiqish va o‘rgatishning oson va aniq me’yorlarini belgilash nafaqat xorijliklarning til o‘rganishi, balki o‘zbek xalqi savodxonligini oshirishga ham xizmat qiladi. Xalqaro tillarning o‘ziga xosligi ularning grammaticasi ma’lum me’yorlar, qonun-qoidalar asosida barcha uchun umumiyligiga o‘rgatish va o‘rganish qolipi - darajalanganligi bilan bog‘liqdir. Jahonning barcha tillarida tipologik universal hodisalar ularni o‘rganish metodlari uchun ham amal qiladi, ya’ni tillar nazariyasi va amaliy metologiyasi bir-biri bilan o‘zaro oziqlanadi. Shundan kelib chiqib, o‘zbek adabiy tilini darjalash tilshunoslikda zamonaviylik va aniqlikka asoslangan hodisa sifatida tub burilish yasaydi. Buning uchun, avvalo, lingvistik darajalangan tillar, ularning qonuniyatları, darajalanish tamoyillari bilan tanishish va darajalangan tillarning umumiyligi hamda differensial jihatlarini aniqlash lozim. Bu borada biz o‘z-o‘zidan mamlakatimizda eng keng tarqalgan va boshqa tillarga nisbatan qiziquvchilar soni ko‘pligi jihatidan ingliz tilining darajalanishiga asoslanamiz.

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

Ingliz tilida darajalanish, asosan, CEFRL yoki CEFR (Common European Reference for Languages – Umumiy Yevropa Til ko‘nikmasi qolipi) va IELTSga asoslanadi, bu chet tilini egallashning Umumyevropa kompetensiyasi deb ham ataladi. CEFRL 1989-1996-yillar davomida Yevropa kengashi (European Council) tomonidan “Language Learning for European Citizenship” loyihasi asosida tuzilgan bo‘lib, 2001-yil noyabr oyidan boshlab Yevropa tillarini bilish darajasini baholashda asosiy mezon sifatida butun dunyo mamlakatlarida xizmat qilmoqda. Shunga ko‘ra daraja me’yorlari va ularni o‘rganish CEFR bo‘yicha qilingan tadqiqotlar bilan bog‘liq.

Tillarni daraja me’yorlari asosida shakllantirib, leksik darajalash ingliz tili misolida 1970-yillardan boshlangan. Bu ingliz tilining xalqaro sertifikatlari joriy etilish tarixi bilan bog‘liq. CEFRL til birliklarini darajalash qonuniyatlar bilan ilmiy nuqtai nazardan tanishishda Francoise Kusselingning “A Corpus-Based Evaluation of the Common European Framework: Vocabulary for French Teaching and Learning” (2012-yil) nomli doktorlik dissertatsiyasi va Yevropa tillar uyushmasi tomonidan chiqarilgan “Common European Framework of Reference for Languages: Learning, Teaching, Assessment” nomli dasturiy o‘quv qo‘llanmasi judayam qo‘l keladi.

Shuningdek, manba sifatida “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”, “O‘zbek tilining faol so‘zlar lug‘ati”, “O‘zbek tilining sinonimlar lug‘ati”, “O‘zbek tilining antonimlar lug‘ati”, “O‘zbek tilining omonimlar lug‘ati” va ingliz-o‘zbek hamda o‘zbek - ingliz ikki tilli lug‘atlariga asoslanish maqsadga muvofiq.

O‘zbek tilini darajali til me’yorlari asosida o‘qitish borasidagi yoki bunga tavsiya beradigan ishlarning yo‘qligi, bu mavzu tadqiqot ishi uchun yangilik ekanligini hisobga olib, barcha o‘rganiluvchi ilmiy adabiyotlar va qo‘llanmalar sifatida xorijiy adabiyotlar va ilmiy ishlarga ko‘proq tayanish ishimizning samaradorligini oshiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1.Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini bиргаликда barpo etamiz. -Toshkent: O‘zbekiston, 2016. 14-b.

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

2. Mengliyev B., Toshmirzayeva Sh., Atoyeva S., Majidova S. Ona tili (11-sinf, II qism). – Toshkent: O‘qituvchi, 2020.
3. To‘xliyev B., Shamsiyeva M., Ziyodova S. O‘zbek tili o‘qitish metodikasi. – Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2010.
4. Umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limining davlat ta’lim standartlarini tasdiqlash to‘g‘risida. (O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami). – Toshkent, 1999. 2-b.
5. Yohann Shustereder. Beshinchi o‘quv moduli: Chet tilini o‘qitish (FCG International Ltd, tarjima ingliz tilidagi versiya asosida). - Finlandiya. 2017. 18-b.